O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

T. SOBIROV

# VETERINARIYA ISHINI TASHKIL QILISH

*Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma*

«MAJBURIY NUSXA»

TOSHKENT
«VORIS-NASHRIYOT»
2012

УДК 619(075)
КВК 48 – Ветеринария
S54

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi ilmiy-metodik kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan

**Taqrizchilar:**
***A. Turdiyev*** – Biologiya fanlari nomzodi;
***A. Alimardonov*** – Biologiya fanlari nomzodi

**Sobirov, Toir**

Veterinariya ishini tashkil qilish: o'quv qo'llanma / T. Sobirov. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi; O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim Markazi. – T.: «NISO POLIGRAF», «VORIS-NASHRIYOT», 2012. – 80 б.

*«Veterinariya ishini tashkil qilish»* fanidan yozilgan o'quv qo'llanma kollej o'quvchilari, bakalavrlar uchun mo'ljallangan. O'quv qo'llanmada kirish, o'quv fanining maqsadi va vazifalari, uning ishlab chiqarishdagi o'rni, fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar, fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni, umumiy, tashkiliy va boshqaruv masalalari hamda veterinariya ishini tumanlarda, shaharlarda va xo'jaliklarda tashkil qilish va bundan tashqari amaliy mashg'ulotlarni bajarish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar o'z o'rnini topgan.

Ю 41920
291

**УДК 619(075)**
**КВК 48**

ISBN 978-9943-375-78-9

2013/124
A
9660
Alisher Navoiy
nomidagi
O'zbekiston MK

© «NISO POLIGRAF», 2012.
© «VORIS-NASHRIYOT», 2012.

## KIRISH

Bu kitob veterinariya ishini tashkil etish, yuritish, veterinariya hisob-kitoblari, oylik, kvartal, hisobotlarni topshirish va veterinariyada kerak bo'ladigan jurnallarni yuritish usullarini o'z ichiga oladi. Shu vaqtgacha kollej o'quvchilari uchun bunday o'quv qo'llanma yo'q edi. Veterinariya bilimlarining bu muhim sohasi bo'yicha yozilgan qo'llanmaga bo'lgan ehtiyoj, talaba va o'quvchilar orasida juda katta.

Muallif bu kitob ustida ishlash jarayonida asosiy e'tiborni veterinariya ishini to'g'ri yuritish, kasal hayvonlarni ro'yxatga olish, parrandalarni, quyonlarni, baliqchilikda veterinariya hujjatlarini to'g'ri yuritish haqida batafsil yozishga harakat qilgan. Veterinariya ishini tashkil etish kitobida dasturdagi asosiy mavzular: «Veterinariya to'g'risidagi qonun», Veterinariya xizmati, hayvon va chorvachilik mahsulotlari egalarining huquqi va vazifasi, hayvonlarning yuqumli kasalliklari tarqalganda karantin belgilash va uning bekor qilish tartibi, O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jalik vazirligi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasining huquqlari, bosh boshqarmaga rahbarlik qilish va boshqalar bayon qilingan.

Asosiy materiallarga qo'shimcha sifatida har bir darsni samarali o'tqazish uchun o'quvchilarga yordam tariqasida qisqacha metodik ko'rsatmalar berilgan.

Ushbu darslik o'zbek tilida birinchi marotaba ilk marta nashr qilinayotganligi uchun ayrim kamchiliklardan holi emas, shunga ko'ra darslik haqidagi fikr va mulohazalaringizni yuborishingizni so'raymiz.

# I BO'LIM.
# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDIDA YURITILADIGAN VETERINARIYA XIZMATIGA OID QONUNCHILIK VA MEYORIY HUJJATLAR
# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA TO'G'RISIDAGI QONUNI

## I. UMUMIY QOIDALAR

### 1-modda. Veterinariya

Veterinariya – hayvonlarni kasalliklardan muhofaza qilish hamda ularni davolash, ishlab chiqarish va aholining yuqori sifatli chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, odamlarning hayvonga ham, insonga ham xos kasalliklarga chalinishining oldini olish, shuningdek atrof muhitni muhofaza qilishning veterinariya sanitariya muammolarini hal etishga doir davlat, jamoat, xo'jalik va maxsus veterinariya tadbirlari majmuidan iboratdir.

### 2-modda. Veterinariyaning asosiy vazifalari

Quyidagilar veterinariyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

Hayvonlarni (chorva mollar, parrandalar, mo'ynali va boshqa hayvonlarni, baliqlar, asalarilar, hayvonot bog'laridagi va (chorva) shu kabilardagi jonivorlarlarni kasalliklardan himoya qilish;

Aholini odam va hayvonlar uchun umumiy bo'lgan kasalliklardan muhofaza qilish;

O'zbekiston Respublikasi hududini boshqa davlatlar hududidan hayvonlarning yuqumli kasalliklari olib kirilishidan muhofaza qilish;

Yagona davlat veterinariya nazoratini amalga oshirish;

Atrof muhitni himoya qilishning veterinariya-sanitariya muammolarini hal etish;

Veterinariya xodimlari tayyorlash va ularni malakasini oshirish;

Fan va texnika yutuqlarini veterinariya amaliyotiga tadbiq etish.

### 3-modda. Veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlari

Veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonundan hamda unga muvofiq chiqariladigan boshqa qonun hujjatlaridan iborat bo'ladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida veterinariya ishi Qoraqalpog'iston Respublikasi qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

## 4-modda. Veterinariyani tuzilishi

O'zbekiston Respublikasida davlat veterinariyasi, idoraviy va xususiy veterinariyalar amal qiladi.

Davlat veterinariya xizmatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasi, viloyatlar va Toshkent shahrining davlat veterinariya boshqarmalari, tumanlar, viloyat va tuman bo'ysunuvidagi shaharlarning davlat veterinariya bo'limlari, ularning qaramog'idagi hayvonlar kasalliklariga qarshi kurash stansiyalari (tuman veterinariya stansiyalari), diognostika markazlari, veterinariya shifoxonalari, laboratoriyalari, ekspedisiyalari, hayvonlar kasalliklariga qarshi kurash otryadlari, bozorlardagi veterinariya-sanitariya ekspertizasi laboratoriyalari va davlat veterinariya tarmog'ining boshqa tashkilot va muassasalari amalga oshiradilar.

Joylardagi davlat va idoraviy veterinariya bo'linmalarining tuzilishi va miqdori chovachilikning rivojlanish xususiyatlarini, qushxona va chorvachili mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarining joylashtirilishini hisobga olgan holda shakllantiriladi hamda bosh davlat veterinariya nozirlari bilan kelishilgan holda mahalliy hokimiyat organlari tomonidan belgilanadi.

Davlat va idoraviy veterinariya xizmati muassasalari boshida qonunlarga muvofik, shartnoma asosida veterinariya xizmati ko'rsatadigan qo'shma korxonalar, kooperativlar va boshqa xo'jalik hisobidagi birlashmalar tuzilishi mumkin.

## 5-modda. Veterinariya xnzmatini boshqarish

O'zbekiston Respublikasi veterinariya xizmatiga rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jalik vazirligi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasi amalga oshiradi. Davlat veterinariya bosh boshqarmasiga O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jalik vazirligi tayinlaydigan boshliq boshchilik qiladi.

Davlat veterinariya bosh boshqarmasi xalqaro veterinariya tashkilotlarida O'zbekiston Respublikasi nomidan vakillik qabul qiladi. Viloyatlarda va Toshkent shahrida veterinariya xizmatiga rahbarlikni tegishincha viloyatlar va Toshkent shahrining davlat veterinariya boshqarmalari amalga oshiradilar. Viloyatlar va Toshkent shahrining davlat veterinariya boshqarmalariga tegishli viloyat va Toshkent shahri hokimlari bilan kelishilgan holda O'zR Qishloq va suv xo'jalik vazirligi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasi tayinlaydigan boshliq boshchilik qiladi.

Tuman va shaharlarda veterinariya xizmatiga rahbarlikni tuman va shahar davlat veterinariya bo'limlari amalga oshiriladilar. Tuman va shaharlardagi veterinariya bo'limlariga tuman va shahar hokimlari bilan kelishilgan holda viloyat davlat veterinariya boshqarmalari tayinlaydigan boshliq boshchilik qiladi.

Davlat chegarasida va transportda veterinariya xizmatiga boshliqni davlat chegarasi va transnortdagi veterinariya nazorati boshqarmasi amalga oshiradi. Davlat chegarasi va transportdagi davlat veterinariya nazorati boshqarmasiga O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jalik vazirligi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasi tayinlaydigan boshliq boshchilik qiladi.

Viloyatlar, shaharlar va tumanlardagi veterinariya xizmatini boshqarish davlat idoalari vakolatlari doirasida tegishli hokimlarga va yuqori idoralarga bo'ysunadilar.

O'zR Qishlok va suv xujalik vazirligi huziridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasi to'g'risida nizom O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jalik vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

## II. VETERINARIA XIZMATI

### 6-modda. Davlat veterinariya xizmatining vazifalari

Davlat veterinariya xizmati idoralari o'z vakolatlari doirasida idoraviy mansubligi hamda mulk shaklidan qat'i nazar, barcha korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning ishi ustidan, shuningdek ayrim shaxslarning faoliyati ustidan veterinariya-sanitariya nazoratini amalga oshiradilar.

Davlat veterinariya xizmati:

Epizootik vaziyatni baholaydi va o'ziga berilgan vakolatlar doirasida hayvonlarning yuqumli kasalliklarning oldini olish va ularni yo'qotish tadbirlarini amalga oshirish yuzasidan bajarilishi majburiy ko'rsatmalar beradi;

O'zbekiston Respublikasi hududini chetdan hayvonlarning yuqumli kasalliklari kirib kelishidan qo'riqlash, mollar, hayvonotga mansub mahsulotlar va xomashyo, em-xashak, ozuqabop qo'shimchalar va chorvachilikda qo'llaniladigan boshqa vositalarni tayyorlash, tashish, xorijdan keltirish ustidan nazoratni amalga oshiradi;

Kasalliklarning kelib chiqishi va hayvonlarning nobud bo'lishining sabablarini tahlil qiladi, bunday hollarning oldini olish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi, hayvonlarni davolash ishini tashkil etadi;

Hayvonlarning kasalliklarini aniqlash, shuningdek em-xashak va ichimlik maqsadida laboratoriya-klinik hamda boshqa tadqiqotlar o'tkazadi;

Hayvonlarning yuqumli, invazion kasalliklarining oldini olish va bartaraf etish tadbirlarini amalga oshiradi;

Sog'liqni saqlash organlari va boshqa xizmatlari bilan birgalikda odamlar va hayvonlar uchun xavfli bo'lgan yuqumli kasalliklar manbaiga barham beradi, shuningdek o'zaro axborotlar ayirboshlaydi;

Veterinariya-sanitariya jihatdan yuqori sifatli chorva mahsulotlari va xomashyosi ishlab chiqarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

Barcha chorvachilik obyektlari, kushxonalar, go'sht-sut va boshqa mahsulotlarini qayta ishlaydigan korxonalar, bozorlar va xomashyo omborlarining veterinariya-sanitariya holatini nazorat qiladi, bu obyektlarning qurilishi va qayta qurilishini, shuningdek yer qazish ishlarini veterinariya ekspertizasidan o'tkazadi;

O'zbekiston Respublikasining, boshqa davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslaridan yuqumli kasalliklar yoyilib ketishining oldi olinishi va bartaraf etilishini ta'minlash tadbirlari o'tkazilishini, shuningdek hayvonlarning epizootik holatini aniqlash uchun zarur bo'lgan axborotni taqdim etishni talab qiladi;

Yuqumli kasalliklar aniqlanganda yoki hayvonlarning o'ta havfli kasalligi mavjudligi haqida shubha paydo bo'lganida yuridik va jismoniy shaxslarga mollarni so'yish yoki yo'q qilib tashlash, chorvachilik mahsulotlarini va hayvonotga mansub xomashyoni zararsizlantirish, ularni ishlovdan o'tkazish yoki ulardan foydalanishga doyr bajarilishi majburiy talablarni belgilab qo'yadi;

Davlat idoraviy va xususiy veterinariya mutaxassislarining faoliyatini nazorat etadi va muvofiqlashtiradi;

Veterinariya sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarining muvofiqlashtiradi.

### 7-modda. Davlat veterinariya inspektorlari

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jalik vazirligi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasining boshlig'i O'zbekiston Respublikasining Bosh davlat veterinariya inspektori hisoblanadi, uning o'rinbosarlari O'zbekiston Respublikasi bosh davlat veterinariya inspektorining o'rinbosarlari, viloyatlar va Toshkent shahrining davlat veterinariya boshqarmalari boshliqlari – viloyatlar va Toshkent shahrining davlat veterinariya inspektorlari, ularning o'rinbosarlari esa tegishicha viloyatlar va Toshkent shahar Bosh davlat veterinariya inspektorlarining o'rinbosarlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasining davlat chegarasi va transportdagi

davlat veterinariya nazorati boshqarmasi boshlig'i, davlat chegarasi va transportdagi Bosh davlat veterinariya inspektori hisoblanadi, uning o'rinbosarlari esa davlat chegarasi va transportdagi Bosh davlat veterinariya inspektorining o'rinbosarlari hisoblanadilar.

Shaharlar va tumanlar davlat veterinariya xizmatilarining boshliqlari tegishli shahar va tumanning davlat veterinariya inspektori hisoblanadi.

Chegara va transportdagi veterinariya punktlarining (uchastkalarining) boshliqlari tegishli chegara uchastkasi va transportdagi davlat veterinariya inspektorlari hisoblanadilar.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jalik vazirligi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasining veterinariya mutaxassislari o'z vakolatlari doirasida davlat veterinariya inspektorlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Bosh davlat veterinariya inspektori, viloyatlar, Tashkent shahar, davlat chegarasi va transportdagi bosh davlat veterinariya inspektorlari, ularning o'rinbosarlari va davlat veterinariya inspektorlari vakolatlari doirasida ushbu Qonunga muvofiq yagona davlat veterinariya nazoratini amalga oshiradilar.

**8-modda. Davlat veterinariya inspektorlarining**

Bosh davlat veterinariya inspektori o'rinbosarlari hamda davlat veterinariya inspektorlari o'z vakolatlari doirasida:

Vazirliklar, idoralar jamoa xo'jaliklar, davlat xo'jaliklari boshqa korxonalar tashkilotlar va muassasalarga shuningdek alohida shaxslarga zarur veterinariya sanitariya tadbirlari va epizootik kasalliklarga qarshi tadbirlar o'tqazish to'g'risida bajarilishi majburiy ko'rsatmalar beradilar;

O'zbekiston Respublikasi veterinariya bosh boshqarmasi belgilaydigan ro'yxatdagi o'ta xavfli yuqumli kasalliklarga chalingan hayvonlar aniqlangan taqdirda bu hayvonlarni so'yish yoki yo'q qilib tashlash to'g'risida, shuningdek iste'molga yaroqsiz deb topilgan hayvonga mansub mahsulotlar va xomashyoni yo'q qilib tashlash, ishlovdan o'tkazish yoki o'zga tarzda foydalanish to'g'risida barcha korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va alohida shaxslar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar beradilar. Veterinariya nazorati ostidagi obyektlarga kecha-kunduzning istalgan paytida bemalol mone'liksiz kiradilar va veterinariya qonunlarining buzilganligi hollarini bartaraf etish xususida hamma uchun majburiy ko'rsatmalar beradilar;

Chorvachilik fermalari, mol va parranda kushxonalari, hayvonotga mansub mahsulotlar va xomashyoni ishlovdan o'tkazish hamda saqlash

korxonalari, utilizasiya zavodlari, baliqchilik xo'jaliklari hayvonlarni sun'iy qochirish stansiyalari va boshqa chorvachilik obyektlarining rejasini tuzish, qurish va ishga tushirish loyihalari, shu jumladan ana shu obyektlardagi oqindi suvlarni zararsizlantirish inshootlari loyihalari xususida xulosalar beradilar;

Yuqorida qayd etilgan barcha turdagi qurilishlar uchun yer uchastkalari ajratib berish, mollar uchun suv olish joylarini tanlash, go'sht kombinatlari va boshqa hayvonotga mansub mahsulotlar hamda xomashyoni ishlovdan o'tqazish va korxonalarning suv ta'minoti loyihalari xususida xulosalar beradi:

Holati veterinariya-sanitariya jihatidan qoniqarsiz yoki mollar sog'ligiga, shuningdek mahsulotlar sifatiga zararli ta'sir ko'rsatish xavfi bo'lgan temir yo'l vagonlari, kemalar, samolyotlar va boshqa transport vositalaridam foydalanishni ta'qiqlaydilar;

Chorvachilik obyektlari, go'sht va sut sanoati korxonalaridan, hayvonotga mansub mahsulotlar va xomashyoni qayta ishlaydigan hamda saqlaydigan korxonalarning hayvonlarning yuqumli kasalliklari jihatidan nobopligi yoki veterinariya-sanitariya holati qoniqarsizligi aniqlanganda ulardan foydalanishni ta'qiqlaydilar;

Hayvonlar gigenasi normalari va veterinariya-sanitariya qoidalarining aniqlangan buzilishlari bartaraf etilgunga qadar chorvachilik fermalarida, hayvonlarga mansub mahsulotlar xomashyoni ishlovdan o'tkazish hamda saqlash korxonalarida ishlab chiqarish binolari va inshootlari qurilishini, qayta qurishni, yangi qurilgan, tiklangan va qayta qurilgan obyektlarining foydalanishga topshirilishini to'xtatib qo'yadilar;

Ushbu Qonunni, hayvonlar karantini qoidalarini, boshqa veterinariya sanitariya talablarini buzganlik uchun mansabdor va o'zga shaxslarga belgilangan tartibga muvofiq ma'muriy jazo beradilar;

Hayvonlarning egalari hayvonotga mansub mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash va sotish bilan shug'illanuvchi tashkilotlar shuningdek fuqarolar va veterinariya mutaxassislari ushbu Qonun asosida chiqarilgan hujjatlar va veterinariyaning boshqa talablarini bajarishlari ustidan nazoratni amalga oshiradilar;

chegara joylarda, qo'shni davlatlarda yuzaga kelgan epizootik vaziyat to'g'risida tegishli tashkilotlar va idoralarni xabardor qiladilar, zarur tavsiyalar beradilar;

veterinariya dori-darmonlar, biologik, kimyoviy va boshqa dorilar ishlab chiqarilishini hamda ulardan chorvachilik va veterinariyada foydalanishini nazorat qiladilar, ularning hayvonlar sog'ligi va hayvonatga mansub mahsulotlarning sifatiga ta'sirini baholaydilar.

### 9-modda. Davlat veterinariya xizmatini moddiy va moliyaviy ta'minlash

Davlat veterinariya xizmati:

Respublika va mahalliy byudjet mablag'lari; davlatning mollarini sug'urta qilish mablag'laridan ajratmalar; pullik xizmatlar ko'rsatganligi uchun veterinariya korxonalari, muassasalari va tashkilotlari oladigan mablag'lar hisobiga ta'minlanadi.

Ushbu Qonun talablarini buzganlik uchun undiriladigan ma'muriy jarima pullari viloyat va Toshkent shahrining epizootik fondlariga tushadi.

Ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tamonidan belgilab qo'yiladigan hayvonlar yuqumli kasalliklarining oldini olish va bartaraf etish tadbirlari hisobidan amalga oshiriladi.

### 10-modda. Idoraviy veterinariya xizmati

Idoraviy veterinariya xizmati vazirliklar, idoralar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning tasarrufida bo'ladi.

Idoraviy veterinariya xizmatlarining veterinariya mutaxassislari o'z vakolatlari doirasida davlat veterinariya idoralarining uslubiy rahbarligi va nazorati ostida hayvonlarga idoraviy veterinariya nazoratini va veterinariya xizmati ko'rsatishni amalga oshiradilar.

### 11-modda. Idoraviy veterinariya hizmati veterinariya mutaxassislarining huquqlari

Idoraviy veterinariya hizmatining veterinariya mutaxassislari:

Idoraga qarashli veterinariya nazorati ostidagi obyektlarga kecha kunduzning istalgan paytida bemalol mo'neliksiz kirish va veterinariya to'g'risidagi qonunlarning aniqlangan buzilishlarini bartaraf etish haqida bajarilishi majburiy ko'rsatmalar berish;

Yuridik va jismoniy shaxslardan epizootik kasalliklarning oldini olishni va ular bartaraf etilishni ta'minlaydigan tadbirlarni o'tkazishni, shuningdek idoraga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda hayvonlarning epizootik holatini aniqlash uchun zarur ma'lumotlarni taqdim etishni talab qilish huquqiga egadirlar.

### 12-modda. Idoraviy veterinariya xizmati veterinariya mutaxassislarining vazifalari

Idoraviy veterinariya xizmati veterinariya mutaxassislari: veterinariya to'g'risidagi qonunlarning bajarishini ustidan o'z vakolatlari doirasida idoraviy veterinariya nazoratini amalga oshirishlari;

Xizmat ko'rsatilayotgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda epizootik kasalliklarga qarshi tadbirlar, davolash va veterinariya-sanitariya tadbirlari o'tkazishlari;

Hayvonlarda yuqumli kasalliklar borligi xususida shubha paydo bo'lganda bu haqda davlat veterinariya xizmati idoralariga zudlik bilan xabar qilish va kasalliklarning tarqalib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun barcha zarur choralarni ko'rishlari;

Epizootik kasalliklarga qarshi tadbirlar, veterinariya-sanitariya va davolash profilaktika tadbirlari o'tkazish hamda veterinariya to'g'risidagi qonunlar buzilishida aybdor bo'lgan mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish yuzasidan mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga takliflar kiritishlari;

Amalga oshirgan ishlar haqida davlat veterinariya xizmati oldida belgilangan tartibda hisob berib borishlari shart.

### 13-modda. Idoraviy veterinariya xizmatini ta'minlash

Idoraviy veterinariya xizmati tegishli vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, korxonalar, muassasalar; tashkilotlar, xo'jaliklar hisobidan ta'minlanadi.

### 14-modda. Xususiy veterinariya faoliyati

Xususiy veterinariya faoliyati bilan veterinariya vrachi bo'lgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar shug'ullanishga haqlidirlar. Veterinariya feldsherlari va texniklari veterinariya vrachi nazorati ostida xususiy ish bilan shug'ullanadilar.

Xususiy veterinariya faoliyati bilan shug'ullanayotgan veterinariya mutaxassislari belgilangan tartibda berilgan tegishli ruxsatnomalar (lisenziyalar)ga ega bo'lishlari shart.

### 15-modda. Xususiy veterinariya faoliyati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarning huquqlari

Xususiy veterinariya faoliyati bilan shug'ullanuvchi veterinariya mutaxassislari:

Hayvonlarning karantin yoki qonunlarda belgilangan cheklashlar qo'llanadigan kasalliklarga chalinishi hollarini istisno etganda kasallikni aniqlab tashxis qo'yish va davolash bilan shug'ullanishga;

– hayvonlarni kasallanishdan saqlash maqsadida emlash tadbirlari o'tkazishga, shuningdek hayvonlarning egalariga maslahat berishga;

Hayvonlar sog'lig'iga doir veterinariya hujjatlari berishga:

– mollar va boshqa hayvonlarning yuqumliy kasalliklarga chalinishi havfi paydo bo'lganda hayvonlarni, hayvonatga mansub mahsulotlar va xomashyoni, shuningdek em-xashakni obyektga chetdan olib kirish va obyektdan chetga olib chiqishni taqiqlab qo'yishga haqlidirlar.

### 16-modda. Xususiy veterinariya faoliyati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar vasifalari

Xususiy veterinariya faoliyati bilan shug'ullanuvchi veterinariya mutaxassislari;

Hayvonlarda yuqumli kasalliklar borligi xususida shubha paydo bo'lganida bu haqda mahalliy davlat veterinariya xizmatiga zudlik bilan xabar qilishlari va kasalliklarning tarqalib ketishiga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rishlari:

kasalliklar keng tarqalib ketganida davlat veterinariya ko'rsatmalariga muvofiq ravishda veterinariya tadbirlari amalga oshirishlari;

amalga oshirayotgan ishlari haqida davlat veterinariya xizmati oldida belgilangan tartibda hisob berib borishlari shart.

## III. HAYVON VA CHORVACHILIK MAHSULOTLARI EGALARINING HUQUQ HAMDA VAZIFALARI

### 17-modda. Hayvon va chorvachilik mahsulotlari egalarining huquqlari

Hayvon va chorvachilik mahsulotlari egalari;

veterinariya xizmati ko'rsatilishi uchun davlat, idoraviy va xususiy veterinariya xizmatlari bilan shartnomalar tuzish;

veterinariya xizmatidan hayvonlarning kasallikka chalinish darajasi, epizootik vaziyat va hayvonlar hamda chorvachilik mahsulotlarini maxsus tadqiq etish natijalari haqida axborotlar olish;

O'zR Qishlok va suv xo'jalik vazirligi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasi belgilangan tartibda hayvonlar va chorvachilik mahsulotlari, em-xashak, veterinariya dori-dormonlar sotib olish va sotish, shu jumladan xorijdan sotib olish va horijga sotish;

Mahalliy hokimiyat organlari, davlat, idoraviy veterinariya xizmatlari hamda xususiy veterinariya faoliyati bilan shug'ullanayotgan mutaxassislarning g'ayriqonuniy hatti-harakatlari va ko'rsatmalari ustidan shikoyat qilish huquqiga egadirlar.

## 18-modda. Hayvon va chorvachilik mahsulotlari egalarining vazifalari

Hayvon va chorvachilik mahsulotlarining egalari:

ushbu g'onun va veterinariya to'g'risidagi boshqa qonun hujjatlarining talablariga rioya etishlari;

o'z mablag'lari hisobiga hayvonlar yuqumli kasalliklarga chalinishining oldini olishga qaratilgan tashkiliy-xo'jalik va veterinariya tadbirlarini amalga oshirishlari, byudjetdan moliyaviy ta'minlanadigan tadbirlar bundan mustasno;

kasal hayvonni davolatishlari, zarur bo'lganda veterinariya mutaxassisining ko'rsatmasiga binoan so'yish yoki yo'q qilib tashlashini ta'minlashlari;

iste'molchilar sog'lig'i uchun xavfli moddalar yoki yuqumli kasalliklar qo'zg'atuvchi mikroblar bilan ifloslangan yohud zararlangan chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarilishi va sotilishi istisno etuvchi hayvonlar gigienasi normalarini bajarishlari va veterinariya-sanitariya qoidalariga rioya etishlari;

hayvon sotib olinganligi va ularning o'lishi yoki g'ayriodatiy xatti-harakati hollari to'g'risida muayyan hududga xizmat ko'rsatuvchi tegishli veterinariya bo'limiga zudlik bilan xabar qilishlari;

veterinariya xizmatining hayvonlarni yuqumli kasalliklardan muhofaza etish yuzasidan bergan taqdimnomalarni bajarishlari hamda karantinga doir tegishli tadbirlar va boshqa veterinariya tadbirlarini o'tkazilishini ta'minlashlari, shuningdek davolash-profilaktika ishlovlarini to'liq hajmda o'tkazishlari;

chorvachilik fermaiarini, hayvonlar hamda chorvachilik mahsulotlari saqlanadigan binolar va boshqa inshootlarni, shuningdek yaylovlar, suv havzalari, mol haydab o'tiladigan yo'llar, temir yo'l bekatlari, ko'rgazmalar, bozorlar, so'yish punktlari, maydonchalar; go'sht kombinatlari, separator bo'limlari, sut punktlari zavodlarini lozim bo'lgan veterinariya-sanitariya holatida saqlashlari, ularda dezinfeksiyalash, dezinseksiyalash va deratizatsiyalash ishlarini o'z vaqtida o'tkazishlari, shuningdek o'lgan hayvonlar jasadini yig'ishtirib olishlari va yo'q qilib tashlashlari;

hayvonlar hamda chorvachilik mahsulotlari va xomashyosi savdo-sotig'ini faqat davlat veterinariya xizmatining ruxsati bilan maxsus ajratilgan joylarda veterinariya-sanitariya qoidalariga rioya etgan holda amalga oshirishlari;

veterinariya mutaxassislarining talabiga binoan hayvonlarni ko'rikdan, diagnostik tekshiruvdan, ehtiyot shart yo'sinda emlashdan va davolash-profilaktika ishlovlaridan o'tkazish uchun topshirilishini ta'minlashlari, veterinariya xodimlariga ko'rsatilgan veterinariya xizmatlari evaziga haq to'lagan holda veterinariya tadbirlarini o'tkazish uchun zarur shart-sharoit yaratib berishlari;

yuqumli kasalliklarning paydo bo'lishi yoki chorva mahsulotlarining yaroqsizligi hayvon egalarining aybi bilan paydo bo'lganligi sud tomonidan isbotlangan hollarda sog'lomlashtirish tadbirlariga ketgan harajatlarni davlat veterinariya xizmatiga to'lashlari;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasi tomonidan tasdiqlanmagan biopreparatlar, doridarmonlar, ozuqabop qo'shimchalar, mikroelementlar, biologik kuchaytirgichlar va garmonlarni chorvachilikda qo'llamasliklari;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi davlat veterinariya bosh boshqarmasi tomonidan belgilangan veterinariya-sanitariya talablariga hamda hayvonlar, hayvonotga mansub mahsulotlar va xomashyo hamda em-xashakni chet eldan sotib olish va chet elga chiqarish talablariga rioya etishlari shart.

## IV. HAYVONLARNING YUQUMLI KASALLIKLARI TARQALGANIDA KARANTIN BELGILASH VA UNI BEKOR QILISH TARTIBI

### 19-modda. Hayvonlarning yuqumli kasalliklari tarqalganida karantin yoki cheklashlar

Hayvonlarning yuqumli kasalliklari tarqalgani aniqlangan hollarda tuman (shahar) davlat veterinariya inspektorining taqdimnomasiga binoan mahalliy hokimiyat organlarning qarorlari bilan ayrim podalar, otarlar, uyurlar, qo'ralar, fermalar, xo'jaliklar, korxonalar, temir yo'l bekatlari, aeroportlar, daryo portlari, qishloq va qo'rg'onlarning hududlari hayvonlarning yuqumli kasalliklari tarqalganligi jihatidan yomon ahvolda deb e'lon hamda ularda karantin yoki zarur cheklashlar o'rnatiladi.

Tumanlarni, shaharlarni, viloyatlarni hayvonlarning kasalliklari tarqalganligi jihatidan yomon ahvolda deb e'lon qilish hamda ularda karantin yoki boshqa cheklashlar o'rnatish tegishli bosh davlat inspektorlarining taqdimnomasiga binoan viloyatlar va Toshkent shahri hokimiyatining vakillik organlari bilan yoki viloyatlar va Toshkent shahri hokimlarining qarorlari bilan yoki O'zbekiston Respublikasi Bosh

davlat veterinariya inspektorining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan amalga oshiriladi.

Hayvonlarning yuqumli kasalliklar bilan og'rishi batomom to'xtaganidan keyin karantin yoki cheklashlar o'rnatilgan hududda zarur veterinariya-sanitariyat tadbirlari amalga oshirilgandan (kasalliklarga qarshi kurash qo'llanmalarida ko'rsatilgan muddat o'tganidan) so'ng tegishli bosh davlat veterinariya inspektorlarining taqdimnomasiga binoan karantik yoki cheklashlar o'rnatgan tuman, shahar, viloyat va Toshkent shahar hokimiyatining vakillik organlari yoki hokimlarning qarorlari bilan yohud O'zbekiston Respublikasi Bosh Davlat veterinariya inspektorining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan karantin yoki cheklashlar bekor qilinadi.

### 20-modda. Epizootik kasalliklarga qarshi favqulodda komissiyalar

Hayvonlar yalpi kasallanishi hamda nobud bo'lishining oldini olish va bartaraf etish yuzasidan korxonalar muassasalar, tashkilotlar va ayrim shaxslar faoliyatiga kundalik rahbarlik qilish hamda bu boradagi ishni muvofiqlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, shahar va tuman hokimiyatining vakillik organlari yoki hokimlar tomonidan o'zining tasdiqlangan Nizomiga muvofiq ish olib boruvchi epizootik kasalliklarga qarshi komissiyalar tuziladi.

## V. YAKUNIY QOIDALAR

### 21-modda. Veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganligik uchun javobgarlik

Veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq intizomiy, moddiy, ma'muriy va jinoiy javobgar bo'ladilar.

### 22-modda. Veterinariya xodimlarining davlat sug'urtasi

Davlat veterinariya idoralarining xodimlari byudjet hisobiga davlat tomonidan majburiy sug'urta qilishlari lozim.

### 23-modda. Xalqaro shartnomalar

Agar O'zbekiston Respublikasining halqaro shartnomalarida ushbu Qonundagidan o'zgacha qoidalar belgilab qo'yilgan bo'lsa, u holda xalqaro shartnoma qoidalari qo'llanadi.

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
## F A R M O N I

Iste’mol tovarlarining ayrim turlarini olib kelish, olib chiqib ketishni tartibga solishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida.

Respublikamiz iste’mol bozorida muvozanat saqlanishini va barqaror to‘ldirilishini ta’minlash, aholining ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish, shuningdek, tovarlarning ayrim turlarini qonunga xilof ravishda olib ketilishining oldini olish maqsadida:

1. Yuridik shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga belgilangan tartibda olib kelinayotgan tovarlardan import boj to‘lovlari undirish 1999-yil 1-yanvardan bekor qilisin.

2. «O‘zdavstandart», O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi keltirilayotgan iste’mol tovarlari sifati ustidan qattiq nazor o‘rnatib, ularga tegishli sertifikatlar va ruxsatnomalar o‘z vaqtida berilishini ta’minlasin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi, Ichki ishlar vazirligi eksport qilish taqiqlab qo‘yilgan tovarlarni qonunga xilof ravishda olib chiqib ketish hollariga chek qo‘yish yuzasidan qatiy choralar ko‘rsin.

Belgilab qo‘yilsinki, eksport qilish taqiqlangan tovarlarni yuridik va jismoniy shaxslar (rezidentlar va norezidentlar) qonunga xilof ravishda olib chiqib ketish hollari aniqlangan taqdirda aybdor shaxslar amaldagi qonunlarga muvofiq ma’muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladi.

4. Davlat bojxona qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi bojxona xizmatining ko‘chma bojxona postlari sonini ko‘paytirib, qo‘shni davlatlar bilan chegaralardagi dala yo‘llari va aylanma yo‘llar orqali tovarlarni qonunga xilof ravishda olib chiqib ketish ustidan nazoratni kuchaytirsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bir hafta muddatda manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda iste’mol tovarlarini O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududidan qonunga xilof ravishda olib chiqib ketganlik, shuningdek import qiladigan tovarlarni sotishning belgilab qo‘yilgan tartibni buzganlik uchun yuridik va jismoniy shaxslarning javobgarligini kuchaytirish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga va O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida belgilangan tartibda taklif kiritsin.

6. Amaldagi qonunchilikni ushbu farmonga muvofiqlashtirilsin. Eksport qilish taqiqlangan tovarlarni xilof ravishda olib ketish hollarining oldini olishda huquqni muhofaza kilish organlariga ko'maklashish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ommaviy axborot vositalarini jalb etib, aholi orasida keng tushuntirish ishlarini olib borsin.

7. Ushbu Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi bosh vaziri O'. Sultonov zimmasiga yuklansin.

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING FARMOYISHIDAN KO'CHIRMA

### 20-aprel 1995-yil № 119-F

«Veterinariya to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Qonuni moddasiga muvofiq chorva mollarining karantin qiladigan va o'ta xavfli kasalliklarining oldini olish va tugatish chora-tadbirlari byudjetdan mablag' bilan ta'minlanadigan ro'yxati ilovaga muvofiq belgilansin.

2. O'zbekiston Moliya vazirligi (Guskova) belgilangan ro'yxatga muvofiq kasalliklarning oldini olish va tugatish chora tadbirlari uchun byudjetdan mablag' ajratishni nazarda tutsin.

Vazirlar Mahkamasi 1999-yil
20-apreldagi 119-f-son farmoyishiga

*ILOVA*

Mollarning karantin qiladigan va o'ta xavfli kasallikning oldini olish va tugatish chora tadbirlari byudjetdan mablag' bilan ta'minlanadigan

**RO'YXATI**

1. Bir necha hayvonot turi uchun umumiy bo'lgan kasalliklar:

| | |
|---|---|
| barcha turdagi oqsim kasalligi | kuydirgi |
| brusellez | quturish |
| Aueski kasalligi | yuqumli |
| Trixenellyoz | listerioz |
| Tulyaremiya | sil |
| Leptospiroz | ku-bezgagi |

2. Qoramollarning kasalliklari:

| | |
|---|---|
| o'lat | xavfli kataral bezgagi |
| kontagioz plevropnevmoniya | emfi[illegible] |

2015/fec
A
9660
Alisher Navoiy
nomidagi
O'zbekiston MK

3. Qo'y-echkilar va tuyalar kasalliklari:
chechak bradzot enterotoksemiya
tuyalar o'lati
4. Cho'chqalar kasalliklari:
Teshen kasalligi klassik o'lat
Repraduktiv-respirator sindromi
5. Otlar kasalliklari:
kontagioz plevropnevmoniya manqa
yuqumli anemiya (INAN) gripp (inflyuensa)
6. Parrandalar kasalliklari:
Nyukasl kasalligi yuqumli laringotraxeit
7. Mo'ynali hayvonlar, quyonlar va mayda uy hayvonlari kasalliklari:
8. Hayvonot barcha turlarining ilgari O'zbekiston Respublikasi hududida ro'yxatga olinmagan yuqumli kasalliklar.

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KOMMUNAL XIZMAT KO'RSATISH VAZIRLIGI

BUYRUQ 08.09.98 № 62 Toshkent shahri

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Daydi hayvonlarni tutish bilan shug'ullanuvchi xodimlar mehnatini rag'batlantirish to'g'risida» 1998-yil 21 avgustdagi 359-son qarori

**B U Y U R A M A N**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 21-avgustagi 359-son qarori qo'llanish va ijro etish uchun qabul qilinsin, qarorda quyidagi topshiriqlar berilgan:

1. Kommunal xizmat ko'rsatish vazirligining Qaraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetidan mablag' bilan ta'minlanadigan daydi hayvonlarni tutish bilan shug'ullanuvchi xodimlarning ish haqi 1998-yil 1-sentyabrdan quyidagicha belgilansin:

– mehnat sharoitlari o'ta xafli bo'lganligi uchun tarif stavkalari (lavozim maoshlari)ga 30 foiz qo'shimcha (nadbavka) qo'shilsin:

– o'z vazifalarini namunali bajarganliklari uchun har oylik mukofot lavozim maoshining 100 foizi miqdorida belgilansin.

Lavozim maoshiga qo'shimcha va o'z vazifasni namunali bajarganligi uchun har oylik mukofot sanitariya qonuni hujjatlarini buzganligi uchun jazo jarimalaridan tushgan mablag'lar hisobidan to'lanadi.

2. Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 8-apreldagi 147-son qarori bilan tasdiqlangan sanitariya qonuni hujjatlarini buzganligi uchun jazo jarimalaridan tushgan mablag'lardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomning «a» kichik bandi quyidagi mazmunda ettinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

«o'z vazifalarini namunali bajarganligi va mehnat sharoitlari o'ta xavfli bo'lganligi uchun Kommunal hizmat ko'rsatish vazirligining daydi hayvonlarni tutish bilan shug'ullanuvchi xodimlariga qo'shimcha (nadbavka) *to'lash va har oyda mukofotlash uchun»*

3. «Tashkilotchi» tresti (Magamedov), I va IBBBsi (Fayzullayev) va OM va TBsi (Isroilov) 20 kun muddatda Qoraqalpog'iston Respublikasi KXK vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar XKFB lari bilan birgalikda Moliya vazirligi tasdiqlashiga taqdim etish uchun sanitariya qonuni hujjatlarini buzganligi uchun jazo jarimalaridan tushadigan mablag'lar hisobidan daydi hayvonlarni tutish bilan shug'ullanuvchi hodimlarga *qo'shimcha ish haqi* to'lash va mukofotlash tartibi va shart-sharoitlarini ishlab chiqsin.

4. Ushbu buyruqning bajarilishini nazorat kilish Vazirning birinchi o'rinbosari O.S. Haydarov zimmasiga yuklansin.

O'zbekistoi Respublikasi
Qishlok, xo'jalik vazirining
1995-yil 26-dekabrdagi
№ 299-sonli buyrug'i bilan

**TASDIQLANGAN**

**O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jalik vazirligi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasining**

## NIZOMI

## I. UMUMIY QOIDALAR

1. O'zbekiston Respublikasi Qishlok xo'jalik vazirligi huzuridagi davlat veterinariya bosh boshqarmasi (keyingi o'rinlarda Bosh boshqarma deb yuritiladi) Qishloq ho'jalik vazirligining davlat byudjetidagi mustaqil strukturaviy bo'linmasi bo'lib bir vaqtning o'zida respublika agrasonoat majmuasining idoralararo organi bo'lib hisoblanadi.

Bosh boshqarmaning bevosita bo'ysunuvida 1-ilovada ko'rsatilgan *korxona, muassaga va tashkilotlar turadi.*

2. Bosh boshqarma tarkibiga quyidagilar kiradi: markaziy apparat, Bosh boshqarmaga bevosita bo'ysunuvchi korxona, muassasa va tashkilotlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri Davlat veterinariya boshqarmalari, tumanlar, viloyatlar va tumanga bo'ysunuvchi shaharlar davlat veterinariya tarmog'ining korxona, muassasa va tashkilotlari.

3. Bosh boshqarma o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari, O'zbekistoi Respublika Oliy Majlisining qarorilar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Qishloq ho'jalik vazirligining buyruqlari va ushbu nizomga amal qiladi.

## II. ASOSIY VAZIFALARI VA FUNKSIYALARI

4. Bosh boshqarmaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

hayvonlar kasalliklarining oldini olish va yo'qotish bo'yicha davlat dasturini ishlab chiqish:

O'zbekiston Respublika veterinariya ishiga rahbarlik qilish, veterinariya ishining taraqiyoti va takomillashuvining asosiy yo'nalishlarini belgilash:

O'zbekiston Respublikasi hududida yagona davlat veterinariya nazoratini tashkil etish va amalga oshirish:

respublika hududini boshqa davlatlardan hayvonlarning yuqumli kasalliklari qo'zg'atuvchilari aniqlandanda va favqulotda holatlarda rejalashtirilmagan epizotiyaga qarshi hamda veterinariya-sanitariya tadbirlari o'tkazish uchun zarur biologik, davolovchi va dezinfeksiyalovchi preparatlar, asbob-uskunlar va boshqa moddiy-texnika vositalarining davlat zahirasini yaratish va taqsimlash:

Bosh boshqarma bo'ysinuvidagi veterinariya korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga rahbarlik qilish:

chorvachilikning veterinariya-sanitariya holatini yaxshilash va boshqa veterinariya masalalariga doir takliflarni ko'rib chiqish, ishlab chiqish va belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga, vazirliklarga, davlat qo'mitalariga va idoralariga taqdim etish:

veterinariyada ilmiy tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlarini belgilash va fan yutuqlarini ishlab chiqarishga tatbiq etishni tashkil etish:

veterinariya sohasida xalqaro hamkorlik bo'yicha ishlarni tashkil etish:

atrof muhitni himoya qilishning veterinariya-sanitariya holatlarini hal etish.

5. Bosh boshqarma o'ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

– Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida hayvonlarni kasalliklarini oldini olish va yo'qotish tadbirlari o'tkazilishini, veterinariya-sanitariya jihatidan sifatli chorva mahsulotlari va xomashyosi ishlab chiqarilishi ustidan nazorat qiladi:

– O'zbekiston Respublikasi hududini boshqa davlatlardan hayvonlar yuqumli kasalliklarining qo'zg'atuvchilari olib kirilishidan muhofaza qilish bo'yicha chora tadbirlar ishlab chiqadi va tashkil etadi:

– hayvonlarni o'ta xavfli kasalliklari ro'yxatini belgilaydi, ular aniqlangan hollarda barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va ayrim shaxslarga hayvonlarni so'yish yoki yo'q qilish, iste'mol uchun yaroqsiz deb topilgan chorvachilik mahsulotlari va hayvonotga mansub xomashyoni yo'q qilish, ularni ishlovdan o'tkazish yoki ulardan o'zga yo'sinda foydalanishga doir bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar beradi:

– paydo bo'lgan hollarda karantin yoki cheklovlar qo'yiluvchi hayvonlarning yuqumli kasalliklari ro'yxatini belgilaydi:

– O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi organlari va boshqa vazirliklar, davlat qo'mita va idoralari bilan birgalikda inson va hayvonlar uchun umumiy bo'lgan kasalliklarning oldini olishga doir chora-tadbirlar ishlab chiqadi:

– davlat veterinariya xizmatining tegishli bo'linmalari orqali hayvonlarni, shu jumladan parrandalar, baliqlar, asalari va boshqa hayvonlarni tashish, import va eksport qilish, chorvachilik mahsulotlar va hayvonatga mansub xomashyoni, shuningdek ozuqalar va boshqa veterinariya xizmati nazorati ostida bo'lgan yuklarni qayta ishlab saqlash, sotish va tashilishi ustidan davlat veterinarii nazoratini amalga oshiradi:

– mamlakatimizda va chet ellarda chiqarilgan yangi veterinariya, farmakalogik va biologik preparatlar yaratish, takomillashtirish, sinab ko'rish, chorvachilik va veterinariya amaliyotiga tadbiq etishga doir ishlarni tartibga solish maqsadida bosh boshqarma qoshida belgilangan tartibda veterinariya farmakologik kengashi, davlat idoralararo komissiyasi, veterinariya bo'yicha ilmiy-texnik kengashni tashkil etadi:

– veterinariya masalalariga doir yo'riqnomalar, qoidalar va boshqa me'yoriy (normativ) hujjatlarni belgilangan tartibda ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi:

– ilmiy-tadqiqot masalalaridan, fuqarolardan tushuvchi ixtirolarni va rasionalizatorlik taklif, shuningdek hayvonlarni davolash, diagnostika

qilish va kasalliklarning oldini olishning yangi texnologik usullari va vositalarini ko'rib chiqadi, sinab ko'radi va veterinariya amaliyotiga tatbiq etish uchun qabul qiladi:

– biologik preparatlarga, zarur anjomlarga, asbob-uskunalarga, davolovchi, dezinfeksiya qiluvchi va hayvonlarni kasalliklardan himoya qiluvchi vositalarga bo'lgan talabni va ularning turlarini (assortimentini) aniqlaydi, mamlakatimizda va xorijda ishlab chiqilgan yangi veterinariya preparatlarini ro'yxatga olish va qayta ro'yxatga olishni amalga oshiradi, shuningdek veterinariya preparatlarini boshqa davlatlardan olib kelishga (import) ruhsat beradi:

– chorvachilikka zarur bo'lgan veterinariya tovarlarini chet davlatlardan zoovetta'minot va boshqa tashkilotlar orqali yoki o'zi to'g'ridan to'g'ri olib kelishni tashkil etadi, chet el firmalari bilan o'rnatilgan tartibda veterinariya preparatlari ishlab chiquvchi qo'shma korxonalar tashkil etadi;

– Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri veterinariya boshqarmalarining epizootiyaga qarshi rejasini ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi:

– Zarur hollarda epieootiyani tugatish bo'yicha tadbir ishlab chiqishni tashkil etadi, biologik va davolovchi preparatlar, dezinfeksiyalovchi vositalar, boshqa moddiy-texnika resurslarining zahirasini yaratadi;

– veterinariya tadbirlarining moliyavny ta'minotiga doir hisob-kitoblarni amalga oshiradi va Moliya vazirligiga tegishli takliflar kiritadi:

– Bosh boshqarmaga bo'ysunuvchi korxonalar, tashkilotlar va muassasalarni moliyaviy ta'minlaydi, moddiy-texnika resurslari fondlarini taqsimlaydi, ularning ustav va nizomlarini, ishlab chiqarish-moliyaviy rejalari va yillik hisobotlarni tasdiqlaydi;

– Quyi idoraviy korxonalar, birlashmalar, muassasalar va tashkilotlarda hisob-kitoblar va hisobotlarning to'g'ri yuritililishi va ishonchliligi, epizootiyaga qarshi tadbirlarga ajratiluvchi respublika va mahalliy epizootik fondlari va moddiy texnika resurslarining maqsadli foydalanishi ustidan nazoratni amalga oshiradi:

– zarur hollarda yangi ixtisoslashtirilgan bo'linmalarni tashkil etishga doir takliflarni Qishloq ho'jalik vazirligiga kiritadi, Bosh boshqarma huzuridagi mavjud tashkilot va muassasalarni belgilangan tartibda qayta tashkil etadi;

– O'zbekiston Respublikasining manfaatdor vazirliklari, davlat qo'mita va idoralari bilan birgalikda veterinariyaga xos texnologik asbob-uskunalarni ishlab chiqarish buyurtmalarini joylashtirish va ularnn

import bo'yicha sotib olish rejalarini va eksport bo'yicha takliflar ishlab chiqishda, yangi mashina, texnologik asvob-uskunalar va maxsus transportlar yaratilishida texnik-iqtisodiy va veterinariya-sanitariya talabnomalarini berishda ishtirok etadi:

– o'z vakolati doirasida belgilangan tartibda Butunjahon veterinariya uyushmasi, Xalqaro epizootik byuro, Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti, shuningdek boshqa davlatlarning veterinariya tashkilotlari bilan ikki va ko'p tomonlama asosda hamkorlikni amalga oshiradi:

– Qoraqalog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklariga davlat veterinariya tarmog'i, idoraviy davolash, diagnoz qilish va boshqa veterinariya-sanitariya muassasalari, shuningdek xususiy veterinariya xizmatini takomillashtirish va tashkil etishga doir takliflarni kiritadi:

– barcha chorvachilik obyektlari, veterinariya xizmati muassasalari va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash sanoati binolarini loyihalashning texnologik normalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi, shuningdek mazkur inshootlari loyihalashda va ularning qurilishida veterinariya talablariga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshiradi:

– veterinariya bo'yicha statistik hisobga olish va hisobotlar formalariga doir takliflarni ishlab chiqadi va «Uzdavistiqbolstat» e'tiboriga havola etadi, hayvonlarning karantin qo'yiluvchi kasalliklari harakatini statistik hisobini yuritadi:

– o'z vazifa va funksiyalarini amalga oshirishda Bosh boshqarma o'ziga yuklatilgan burch va huquqlari doirasida manfaatdor vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari bilan o'zaro uzviy hamkorlikda veterinariyaga doir masalalarni hal qilishni ta'minlaydi:

– dehqon-fermer va fuqarolarning yordamchi xo'jaliklariga veterinariya xizmati ko'rsatilishini tashkil etadi:

6. Bosh boshqarma quyidagilar ustidan davlat veterinariya nazoratini tashkil etadi va amalga oshiradi:

– barcha vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar jismoniy shaxslar tomonidan amaldagi veterinariya qonunchiligi talablarini bajarilishi:

– boshqa vazirliklar, davlat qo'mita va idoralarning idoraviy veterinariya xizmati, shuningdek xususiy veterinariya faoliyati:

– O'zbekiston Respublikasi hududini chetdan hayvonlarning yuqumli kasalliklari kiritilishidan muhofaza qilishi, mollar, chorvachilik mahsulotlari va hayvonotga mansub homashyolarni, em-xashak, ozuqabop

qo'shimchalar, chorvachilikda qo'llaniladigan boshqa vositalarni va veterinariya preparatlarini tayyorlash tashish, eksport va import qilishi:

– chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlariga bo'lgan standartlar, texnik shartlar va texnologik yo'riqnomalarga veterinariya talablari qismi bo'yicha, shuningdek biologik preparatlar va veterinariya uchun mo'ljallangan tovarlar ishlab chiqarilishida veterinariya talablariga rioya qilinishi:

– chorvachilikda va hayvonlar kasalliklarini kimyoviy va boshqa preparatlar bilan ishlov berish ustidan nazorat qiladi.

## III. BOSH BOSHQARMANING HUQUQLARI

7. Bosh boshqarmaga quyidagi huquqlar belgilangan:

barcha vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, muassasalar, tashkilotlarga ularning mulki shaklidan qat'iy nazar, shuningdek jismoniy shaxslarga veterinariya masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining amaldagi, qonunlari, qonun asosida chiqarilgan xujjatlardan kelib chiqqan holda bajarishga majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish;

hayvonlarning yuqumli kasalliklari bo'yicha nosog'lom tumanlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqoralarning shaxsiy xo'jaliklaridan hayvonlarni, ozuqa, chorvachilik mahsulotlari va hayvonotga mansub xomashyolarni va boshqa veterinariya hizmati nazorati ostida bo'lgan yuklarni olib chiqish (jumladan eksport), olib kirish (Jumladan import) uchun ruxsatnoma berish yoki taqiqlash, bundan tashqari veterinariya talablariga javob bermaydigan transport vositgalaridan foydalanishni ta'qiqlaydi:

mansabdor va boshqa shaxslarni veterinariya qonunchiligi talablarini, karantinda saqlash qoidalarini buzganligi uchun belgilangan tartibda ma'muriy javobgarlikka tortish;

hayvonlarning yuqumli kasalliklari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahrini nosog'lom deb e'lon qilish va shu joylarda karantin yoki boshqa cheklovlar o'rnatish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish:

